UDK:37.013.42.37.035.6

TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Madaliev Rahmiddin Ismoilovich
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti Tibbiyot fakulteti dekan o'rinbosari, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
ORCID ID0009-0009-0495-3320

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik modeli, uning nazariy-metodologik asoslari hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, mazmun, metod va vositalar tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy-ma'naviy meros, artpedagogik yondashuvlar hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni ochib berilgan. Maqolada talabalarning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modelning tarkibiy qismlari hamda samaradorlik mezonlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarda oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish va yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, pedagogik model, talaba-yoshlar, fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, ijtimoiy faollik, artpedagogika, innovatsion ta'lim texnologiyalari, tarixiy ong, Vatanga sadoqat, ma'naviy barkamollik, faol fuqarolik pozitsiyasi, milliy o'zlikni anglash.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье освещаются педагогическая модель развития патриотизма у студентов, её теоретико-методологические основы и практическое значение в образовательном процессе. В исследовании проанализированы педагогические условия, содержание, методы и средства, способствующие формированию у студенческой молодежи преданности Родине, национальной гордости, гражданской ответственности и социальной активности. Также раскрыта роль национальных ценностей, историко-духовного наследия, арт-педагогических подходов и инновационных образовательных*

технологий в патриотическом воспитании. В статье обоснованы структурные компоненты педагогической модели, направленной на обеспечение духовно-нравственного совершенствования студентов, формирование активной гражданской позиции и развитие чувства сопричастности к общественному развитию, а также критерии её эффективности. Отмечается, что результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования патриотического воспитания в высших образовательных учреждениях и воспитания молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: *патриотизм, педагогическая модель, студенческая молодежь, гражданская ответственность, национальные ценности, национальная гордость, духовно-просветительское воспитание, социальная активность, арт-педагогика, инновационные образовательные технологии, историческое сознание, преданность Родине, духовно-нравственное совершенствование, активная гражданская позиция, национальное самосознание.*

A PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING PATRIOTISM AMONG STUDENTS

Abstract: *This article highlights the pedagogical model for developing patriotism among university students, its theoretical and methodological foundations, and its practical significance in the educational process. The study analyzes the pedagogical conditions, content, methods, and tools that contribute to fostering loyalty to the Motherland, national pride, civic responsibility, and social engagement among students. It also examines the role of national values, historical and spiritual heritage, art-pedagogical approaches, and innovative educational technologies in patriotic education. The article substantiates the structural components of a pedagogical model aimed at ensuring students' spiritual and moral development, establishing an active civic position, and fostering a sense of involvement in societal progress, as well as the criteria for evaluating its effectiveness. The findings of the study are of significant scientific and practical importance for improving patriotic education in higher education institutions and for educating young people in the spirit of national and universal human values.*

Keywords: *patriotism, pedagogical model, university students, civic responsibility, national values, national pride, spiritual and educational upbringing, social engagement, art pedagogy, innovative educational technologies, historical consciousness, loyalty to the Motherland, spiritual and moral development, active civic position, national identity awareness.*

KIRISH

Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning ikkinchi bobida "Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish"[8] masalasi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Bugungi globallashuv va axborot portlashi davrida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy-ma'naviy qarashlarga ega bo'lgan fuqarolar qilib tarbiyalash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda **shaxsning milliy va ijtimoiy mas'uliyat hissi** uning **barkamol rivojlanishining hal qiluvchi omili** sifatida e'tirof etilmoqda.

Bu yondashuvga ko'ra, talabalarda quyidagi yuksak fazilatlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir:

Axloqiy tamoyillarga sodiqlik: halollik, adolat, vijdonlilik, hurmat; **Fuqarolik pozitsiyasi**: Vatanga bo'lgan sadoqat, qonunlarga rioya qilish, ijtimoiy arayonlarda faollik; **Milliy g'urur va o'zlikni anglash:** o'zbek tili, madaniyati, tarixi bilan faxrlanish; **Jamiyat va Vatan manfaatini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish:** fidoyilik, mas'uliyatlilik, ijtimoiy ongning shakllanishi.

Shu bois, zamonaviy ta'limda talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning axloqiy-ruhiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiluvchi yondashuvlarni amaliyotga joriy etish nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, milliy g'urur, Vatanga sadoqat, jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish orqali biz nafaqat bilimli, balki ongli, fidoyi va Vatanparvar avlodni voyaga yetkazamiz.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda milliy va ijtimoiy mas'uliyat hissi shaxsning barkamol rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Shu sababli, talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki axloqiy tamoyillar, fuqarolik fazilatlari va Vatan manfaatini hamisha shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish kabi yuksak axloqiy-ruhiy sifatlarni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METADOLOGIYASI

Pedagogik modelning asosiy strategik maqsadi – talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik ongini shakllantirish hamda ularning

[8] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son.

ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi barqaror tarbiyaviy tizimni yaratishdan iboratdir. Mazkur modelning metodologik negizi shundaki, u shaxsning ongli, faol va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish orqali jamiyatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi intellektual-avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Maqsadga yo'naltirilgan blok talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me'yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Mazmunli-jarayonga doir blok quyidagi majmuaviy pedagogik shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi: talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish; "ommaviy madaniyat" va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy imunitetni shakllantirish hamda talabalarda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini qaror toptirish; vaziyatlarni tahlil etish va topshiriqlarni bajarish orqali talabalarda refleksiv nuqtai nazarni shakllantirish; Modelning natijaviylik bloki baholovchi funksiyani bajardi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, o'zida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Bu maqsadga erishishda talabalarning milliy tarix, madaniyat, urf-odat va an'analar, shuningdek, tarixiy qahramonlar, milliy g'urur timsoli bo'lgan shaxslar hayoti va ularning boy ilmiy-ma'naviy merosi haqida chuqur va tizimli bilimga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali ularda nafaqat tarixiy ong, balki milliy o'zlikni anglash, Vatan taqdiriga daxldorlik, o'z xalqining boy o'tmishi bilan faxrlanish hissiyotlari shakllanadi. Tarixiy-madaniy merosga bo'lgan ijobiy munosabat yosh avlodda ijtimoiy mas'uliyat va Vatanga fidoyilik g'oyalarini chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik model doirasida fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy metodlar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, talaba-yoshlarni nafaqat o'z manfaatlari, balki jamiyat va xalq manfaatlarini ustuvor qo'yishga o'rgatish, ularning ongida "Vatan uchun xizmat qilish – eng oliy burch" degan tushunchani qaror toptirish hozirgi davr tarbiyasining ustuvor vazifalaridan biridir.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, talabalarda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy ong, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni uyg'un holda shakllantirish – pedagogik modelning asosiy mezoni sifatida belgilanishi, uni ta'lim jarayoniga integratsiyalash esa jamiyatning barqaror va taraqqiy etgan kelajagini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik modelning mazmuniy asoslari, avvalo, milliy qadriyatlar, tarixiy-ma'naviy meros va vatanparvarlik g'oyalariga tayangan holda shakllantiriladi. Mazkur modelda milliy tarbiyaning asosiy komponentlari bo'lgan milliy tarix, xalq qahramonlari, qadimiy urf-odatlar, an'anaviy bayramlar, muqaddas sanalar, shuningdek, fuqarolik mas'uliyati, konstitutsiyaviy huquq va burchlar haqidagi bilimlar uzviy uyg'unlikda talabalarga singdirilishi belgilangan.

Bu model orqali shaxsning axloqiy-ruhiy barkamolligi, milliy g'ururi va Vatanga bo'lgan sadoqati bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Mazkur model tarkibida milliy tarbiyaning asosiy komponentlari - milliy tarix, xalq qahramonlari hayoti va jasorati, qadimiy urf-odatlar va an'analar, muqaddas sanalar, hamda fuqarolik mas'uliyati, konstitutsiyaviy huquq va burchlar to'g'risidagi bilimlar uzviy tarzda bir-biriga bog'langan holda talaba shaxsida shakllantiriladi. Bu jarayon orqali ta'lim tizimida na faqat bilim berish, balki yoshlarning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini tarbiyalashga ham e'tibor qaratiladi. Pedagogik modelning mazmuni talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Uning amaliyotga joriy etilishi orqali talaba shaxsida axloqiy-ruhiy barkamollik, milliy g'urur, ezgulik va Vatanga sadoqat hislari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shuningdek, mazkur model ta'lim jarayonida artpedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, va innovatsion tarbiya vositalari bilan boyitilsa, u talabalarning ijodiy tafakkurini, hissiy-intellektual yetukligini va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash salohiyatini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa pedagogik model nafaqat nazariy konsepsiya, balki yosh avlodni har tomonlama yetuk, vatanparvar va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishning amaliy yo'nalishiga aylanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, pedagogik modelning mazmuni nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan shakllantiruvchi funksiyani ham bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, vatanparvar, madaniyatli va ongli avlodni tarbiyalashning poydevorini tashkil etadi.

Vatanparvarlikni rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'lim metodlari talabalar o'z Vataniga bo'lgan muhabbatni amaliy va emotsional jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Interaktiv metodlar-rolli o'yinlar, muhokamalar, tarixiy debatlar, loyihalar va ijodiy mashg'ulotlar talabalar ongida milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishda yordam beradi.

Tasviriy va dramatik san'at usullari-teatr, rolli o'yinlar va sahnalashtirish orqali talabalar milliy qahramonlar va tarixiy voqealarni ifodalaydilar, bu orqali ularning milliy iftixor hissi rivojlanadi.

Vatanparvarlikni rivojlantirish pedagogik modeli samaradorligini oshirish uchun quyidagi sharoit va omillarga e'tibor qaratish zarur:

Madaniyatshunoslik yondashuvi talabalarda milliy madaniyatni va tarixiy qadriyatlarni shakllantirishga urg'u beradi. Unga ko'ra, vatanparvarlikni rivojlantirish madaniyat, san'at va tarixiy bilimlarni to'liq o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik modeli o'z ichiga bir qancha muhim komponentlarni oladi. Modelning tarkibiy qismlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Mazmun komponenti talabalar uchun milliy tarix, madaniyat, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik va siyosiy mas'uliyat kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarni taqdim etishda tarixiy faktlar, milliy qahramonlar, madaniy meros va jahon tarixi bilan bog'liq mavzular kiritiladi.

Vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali metodlari orasida interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, muzey ekskursiyalari, tarixiy filmlar, badiiy asarlar va adabiyotlarni o'rganish metodlari kiradi. Bu metodlar talabalarning fikrlash va hissiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.

Har bir metod talabalarning qiziqishlariga va tayyorgarlik darajasiga moslashgan holda qo'llanilishi lozim. Shu bilan birga, bu metodlarni birlashtirib, yanada samarali darslarni tashkil etish mumkin.

Pedagogik vositalar: Bunga audiovizual vositalar, tarixiy materiallar, multimediya texnologiyalari va san'at asarlarini o'z ichiga olgan didaktik materiallar kiradi. Pedagogik vositalarni talabalarga o'rgatish jarayonida o'zaro faoliyatni rag'batlantirish va ularni darsga jalb qilishda qo'llaniladi.

Pedagogik muhit: Talabalarning vatanparvarlik hissini shakllantirishda muhim o'rin tutadigan boshqa bir omil bu ta'lim muhitidir. Vatanparvarlikni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni hurmat qilish va talabalarda milliy birlashuv tuyg'ularini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhitni yaratish zarur. Bu talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda qo'llaniladigan ba'zi ilmiy tavsiyalar va pedagogik nazariyalar quyidagicha:

Faoliyat nazariyasi:Sh.R.Barotovning[9] psixologiya nazariyasiga ko'ra, talaba o'z faoliyatida Vatan haqidagi bilimlarni nafaqat o'rganishi, balki amaliyotda ishlatishi kerak. Bu jarayon o'z-o'zini tarbiyalashga asoslangan bo'lib, talabalarga amaliy faoliyat orqali Vatanga bo'lgan muhabbatni ko'rsatish imkonini beradi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi: kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, talabalar turli yosh davrlarida turli darajalarda fikrlashadi. Vatanparvarlikni rivojlantirish uchun yoshga mos ta'lim metodlari va materiallarni ishlab chiqish zarur.

Pedagogik kommunikatsiya: Pedagogik kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'qituvchining shaxsiy namunalari va talabaning ijtimoiy muhitdagi tajribasi Vatanparvarlik hissini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik modeli nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'rganilishi lozim. Amaliy tadqiqotlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki teatr sahnalari, dramatik ifodalar va san'at asarlari orqali talabalarga milliy tarixni va madaniyatni o'rgatish samarali bo'ladi. Bu usul talabalar emotsional va estetik jihatdan Vatanga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik modelning asosiy maqsadi, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish orqali ularning milliy va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishdir. Bu orqali yoshlarni faqat jamiyatga foydali bo'lgan fuqaro sifatida tarbiyalash, ularni mamlakatning kelajagi va rivoji uchun mas'uliyatli qilish maqsad qilingan. Shu bilan birga, pedagogik modelda talaba-yoshlarni faqat an'anaviy o'qitish metodlariga asoslanmasdan, zamonaviy innovatsion usullarni ham joriy etish talab etiladi. Bu esa, talabalarning fikrlash darajasini, kreativ yondashuvni va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

NATIJA VA MUXOKAMA

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish uchun talabalarni zamonaviy bilimlar olishi, ularning istiqbolli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarishda zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishga to'liq imkoniyat yaratish, yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish, ularda bilim olish, mehnat qilish, atrof-muhitga munosabatda loqayd bo'lmaslikka e'tibor qaratish bilan birga bugungi kunda yoshlar orasida kuzatilayotgan holatlar, ya'ni o'z Vatani qadrini yurakdan his qilmasdan, uning ravnaqi uchun mehnat qilmasdan yengil-

[9] Barotov Sh.R., Avezov O.R., Olimov L.Y. Psixologiy nazariyasi va tarixi. Darslik. – Toshkent, 2019.-B.503.

yelpi hayot kechirayotgan yoshlar ham uchrab turibdi. Albatta, bunday salbiy holatlarning oldini olishda oliy ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilgan shakl, metod va vositalar talabalar bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishga va ta'lim-tarbiyani ular bilan uyg'un holda tashkil etishga yordam berdi.

Bu esa quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi:

1. Talaba-yoshlarda Vatanparvarlikni rivojlantirish, insoniylik, to'g'rilik, kamtarlik, adolatlilik, insonparvarlik, mehr-muruvvat, saxovat, ota-onaga hurmat, bag'rikenglik kabi axloqiy sifatlarni qadriyat sifatida uzluksiz singdirib borish.

2. Yoshi kattalar, ustoz-murabbiylarga hurmat-ehtirom, g'amxo'rlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yanada rivojlantirish.

3. Mehnat an'analarini hozirgi davrga mos holda rivojlantirish orqali mehnat tarbiyasi va hunar o'rgatishda avlodlar an'anasini davom ettirish.

4. O'zbek xalqining mehmondo'stlik an'analarini hozirgi kunda diplomatik aloqalar, bag'rikenglik, hamjihatlik, do'stlik, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik tamoyillari darajasiga ko'tarish.

Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish, ta'lim-tarbiyaning asosiy shakli hisoblangan dars mashg'uloti barcha vazifalarni to'la yecha olmaydi. Shuning uchun talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish dars mashg'ulotlaridan tashqari tarbiyaviy ishlar katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlar talabalarning bo'sh vaqtini artpedagogik vositalardan unumli foydalangan holda to'g'ri tashkil qilinsa ularning ma'naviy dunyosini boyitish bilan birgalikda darsda olgan bilimlarini chuqurlashtirishda yetakchi vosita bo'ladi.

Darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazish jarayonida murabbiylar tomonidan madaniy tadbirlar "Biz O'zbekiston yoshlarimiz", "Shu aziz Vatan – barchamizniki" kabi tadbirlar o'tkazish, talabalar bilan taniqli shoirlar, yozuvchilar, madaniyat arboblarining uchrashuvlarini uyushtirish, ularni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga doir tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Zero, talabalarda vatanparvarlikni artpedagogik vositalarda rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar talabalarni innovatsion texnologiyalar asosida bilim olishga, kreativ fikrlash, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlarini yaratib beradi. Buning uchun: oliy ta'lim muassasalarida turli mavzularda tanlovlar o'tkazish, vatanparvarlikni artpedagogik vositalarda rivojlantirishga yordam beradigan badiiy adabiyot, teatr, milliy sa'nat turlari bilan tanishtirib borish, milliy o'zligimiz, qadriyatlarimizni, ilm-ma'rifat uchun kurashgan davlat arboblari, mutafakkirlarning faoliyatini o'rgatish.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish uchun talabalarni zamonaviy bilimlar olishi, ularning istiqbolli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarishda zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

XULOSA

Xullas, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik modeli asosiy maqsad sifatida yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati tuyg'ularini shakllantirish hamda mustahkamlashni nazarda tutadi. Ushbu model orqali talabalarning milliy qadriyatlarga hurmati, tarixiy merosga sadoqati va jamiyat oldidagi burchini chuqur anglashi ta'minlanadi. Natijada ularning milliy va ijtimoiy mas'uliyati yuksalib, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan, ma'naviy yetuk va faol fuqaro sifatida kamol topishiga zamin yaratiladi. Shu bilan birga, vatanparvarlikni rivojlantirish talabalarning milliy va pedagogik madaniyatini oshirish, ularda insonparvarlik, bag'rikenglik, qonuniylikka hurmat va ijtimoiy faollik kabi muhim fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Vatan taqdiriga daxldorlik hissi shakllangan yoshlar mamlakat ravnaqi, jamiyat barqarorligi va xalq farovonligini o'zining shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un holda anglay boshlaydi. Zero, vatanparvar va yuksak madaniyat sohibiga aylangan inson har qanday huquqbuzarlik va jinoyatning salbiy oqibatlarini chuqur anglaydi hamda bunday xatti-harakatlardan o'zini tiyadi. Chunki u jamiyat tinchligi, oila farovonligi va davlat taraqqiyotining qadrini yaxshi biladi. Bunday ong va tafakkurga ega yoshlar tinch va farovon hayotni qadrlab, uni yanada mustahkamlash, Vatan ravnaqi va xalq manfaatlari yo'lida o'z bilimlari, salohiyati va kuch-g'ayratlarini safarbar etadilar. Natijada ular milliy taraqqiyotning faol ishtirokchisi, yuksak ma'naviyatli va mas'uliyatli avlod sifatida shakllanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "YAngi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston, 2022 y. 4-27 b

2. "2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi". Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qarori.

3. Barotov Sh.R., Avezov O.R., Olimov L.Y. Psixologiy nazariyasi va tarixi. Darslik. – Toshkent, 2019.-B.503.

4. Madaliev R. "Talaba – yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati" *FarDU ilmiy xabarlari* 2023 y. №1son 51-54 b.

5. Madaliev R. "Talabalarda harbiy vatanparvarlikni artepedagogik vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusidagi maqola. *FarDU Respublika ilmiy amaliy anjumani* 20-may, 2023-yil 136-136-b.

6. Madaliev R. "Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositasida rivojlantirish texnologiyasi " mavzusidagi maqola. "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti" jurnali 1/8, 2023y. 137-139-b.

7. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - Prospects for the Development of Patriotism in Students in the Educational Procees Innvative Technologika: Methodel Research journal Vol: 3, No 3, 2024. – P.1-6.

8. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talabalarda vatanparvarlikni artepedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" NamDU Ilmiy axborotnomasi //Namangan, 11/2024y. , B.775-778.